

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
TABIIV FANLAR FAKULTETI

professori, kimyo fanlari doktori

SULTONOV MARAT MIRZAYEVICH

tavalludining 60 yilligiga bag'ishlangan

konferensiya materiallari



<u>TAHRIR HAY’ATI</u>	<u>TAHRIRIYAT A’ZOLARI</u>
Bosh muharrir Yaxshiyeva Z.Z. k.f.d., professor	<u>Bosh muharrir</u> Yaxshiyeva Zuhra Ziyatovna k.f.d., professor <u>Tahririyat a’zolari:</u> 1. Yaxshiyeva Z.Z. – k.f.d., professor JDPU. 2. Shilova O.A. – k.f.d., professor I.V. Grebenshikov nomidagi Rossiya FA Silikatlar kimyosi instituti. 3. Markevich M.I. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA. 4. Elbert de Josselin de Jong – professor, Niderlandiya. 5. Anisovich A.G. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA. 6. Kodirov T. – k.f.d., professor TKTI. 7. Abduraxmonov E. – k.f.d., professor SamDU. 8. Nasimov A. – k.f.d., professor SamDU. 9. Smanova Z.A. – k.f.d., professor O’zMU. 10. Mavlonov X. – b.f.d., professor JDPU. 11. Usmanova X.U. – professor URUXU. 12. Qutlimurodova N.X. – k.f.d., dotsent O’zMU. 13. Nuraliyeva G.A. – dotsent O’zMU. 14. Sultonov M.M. – k.f.d., dotsent JDPU. 15. Xudanov U.O. – t.f.n., dotsent JDPU 16. Murodov K.M. – dotsent SamDU. 17. Abduraxmonov G’.– dotsent O’zMU. 18. Yangiboyev A. – k.f.f.d., (PhD), dotsent O’zMU. 19. Xakimov K.M. – g.f.n., professor v/b. JDPU. 20. Azimova D.E. – b.f.f.d., (PhD) dotsent. JDPU. 21. G’o’dalov M.R. – g.f.f.d., (PhD), dotsent JDPU. 22. Ergashev Q.X. – dotsent TDPU. 23. Orziqulov B. – k.f.f.d., (PhD) O’zMU. 24. Kutlimurotova R.H.-SVMUTF 24. Xamrayeva N. – dotsent JDPU. 25. Rashidova K. – dotsent JDPU. 26. Inatova M.S. – dotsent JDPU.
Mas’ul kotib Urazov Sharofiddin	
Muassasa Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Jurnal 4 marta chiqariladi (har chorakda)	
Jurnalda chop etilgan ma’lumotlar aniqligi va to’g’riligi uchun mualliflar mas’ul.	
Jurnaldan ko’chirib bosilganda manbaa aniq ko’rsatilishi shart.	

ILM SARHADLARI

Sulstonov Marat Mirzayevich, 1964 yil 17 fevralda Andijon viloyati, Asaka shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. Ma'lumoti oliy, 1986 yil Toshkent davlat universitetini kimyo o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan.

Sulstonov Marat Mirzayevich- 1986-1988 yy. -Jizzax viloyati, Jizzax tumani 8-maktab o'qituvchisi, 1988-1989 yy. - Toshkent tibbiyot instituti umumiy kimyo kafedrasida kichik ilmiy xodimi, 1989-1992 yy.- O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi



polimerlar kimyosi va fizikasi instituti aspiranti, 1992-1994 yy. -O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi polimerlar kimyosi va fizikasi instituti kichik ilmiy xodimi, 1994-1995 yy.- Jizzax davlat pedagogika instituti umumiy biologiya kafedrasida o'qituvchisi, 1995-1996 yy. -Jizzax viloyati hokimligi fan va texnologiya ilmiy markazi ilmiy kotibi, 1996-1997 yy. - Jizzax davlat pedagogika instituti umumiy biologiya kafedrasida o'qituvchisi, 1997-1998 yy. -Jizzax davlat pedagogika instituti umumiy biologiya kafedrasida katta o'qituvchisi, 1998-2012 yy. -Jizzax davlat pedagogika instituti kimyo-ekologiya va uni o'qitish uslubiyati kafedrasida mudiri, 2012-2018 yy. -Jizzax davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori, 2018 yil iyuldan hozirgi vaqtga qadar Jizzax davlat pedagogika universitetining kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrasida mudiri lavozimidan ishlab kelmoqda.

Sulstonov Marat Mirzayevich universitetdagi pedagogik faoliyati mobaynida analitik kimyo va organik kimyo fanlarining o'qitilishi, ta'lim jarayonini yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etish, ta'limda sifat ko'rsatkichlariga erishish borasida chuqur izlanib, ijobiy natijalarga erishib kelmoqda. Shu bilan birga institutning o'quv, ilmiy-uslubiy va ma'naviy–ma'rifiy ishlarini takomillashtirishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Sulstonov Marat Mirzayevich 1993 yil 30 aprelda professor B.L.Gofurov va professor S. Masharipovlar rahbarligida “Vinilxloridni to'yinmagan benzoksazon hosilalari bilan sopolimerini sintez qilish va xossalari o'rganish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini, 2019 yil 5 martda professor E.Abduraxmonov ilmiy maslahatchiligida “Chiqindi va tutunli gazlar tarkibi monitoringi uchun avtomatlashgan termokatalitik usullarni ishlab chiqish” mavzusidagi doktorlik

***“Journal of Natural Science” №1(14) 2024 y. Sultonov Marat Mirzayevich
tavalludining 60 yilligiga bag'ishlangan konferensiya materiallari***

dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda hamda OAK e'tirofidagi ilmiy jurnallarda 100 dan ziyod ilmiy maqolalari e'lon qilingan.

Sultonov Marat Mirzayevich rahbarligida kimyo o'qitish metodikasi bakalavr ta'lim yo'nalishining 100 dan ortiq talabalari bitiruv malakaviy ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Bugungi kunda qadar 11 nafar magistrlik ilmiy darajasini olish uchun izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilgan.

Sultonov Marat Mirzayevich “Термокаталитические методы определения состава выхлопных и дымовых газов” nomli monografiya, “Аналитическая химия”, “Fizik-kolloid kimyo” “Kimyo tarixi” nomli o'quv qo'llanmalar muallifi hisoblanadi.

Sultonov Marat Mirzayevich O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.K.01.03 raqamli Ilmiy Kengash va Samarqand davlat universiteti huzuridagi kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi 03/30.12.2019.K.02.05 raqamli ilmiy Kengash va O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi “Kimyo fanlari, kimyoviy texnologiya nanotexnologiyalar” yo'nalishi bo'yicha Ilmiy-texnik kengashlar a'zosi, sifatida ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Sultonov Marat Mirzayevich yuqori tashkilotlar tomonidan yuklatilgan vazifalar, universitet va fakultet tomonidan berilgan topshiriqlarni sidqidildan bajarganligi sababli “Xalq maorifi a'lochisi” ko'krak nishoni, vazirlik va universitet rektorining faxriy yorliq va sovg'alari bilan taqdirlangan.

Sultonov Marat Mirzayevich universitet jamoasi o'rtasida alohida e'tiborga ega pedagog, talabalarga bilim berish borasida talabchan va mehribon ustoz-murabbiylardan biridir. U doimiy ravishda o'z malakasini, siyosiy va ilmiy-nazariy saviyasini oshirish ustida sabr-toqat bilan ishlaydi.

OMONQORA O`SIMLIGINING DORIVORLIK AHAMIYATI

G.B.Mamuratova-o`qituvchi

S.Sh.Rahmonova-3-kurs talaba

G.Lapasova 1-kurs talaba

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Annotatsiya. Ushbu maqolada chuchmomodoshlar oilasiga mansub bo'lgan “Qizil Kitob” ga kiritilgan noyob dorivor o`simliklardan biri omonqora o`simligi hamda uning turli xil og`ir kasalliklarga davosi haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: qoraqobiq, alkaloid, ungernia viktoris, ungernia sewerzowii, poliomiyelet, polionevrit, galantamin, likorin.

O`zbekiston florasidagi ko'plab dorivor o`simliklardan tibbiyotda turli xil kasalliklarni davolashda tabiiy dori sifatida keng foydalaniladi. Ularning tarkibida turli xil vitaminlar, efir moylari, alkaloidlar va boshqa moddalar mavjud. Afsuski, insoniyat tomonidan ulardan noto`g`ri foydalanish va ayovsiz terib ketilishi natijasida dorivor o`simliklarning soni nihoyatda kamayib ketmoqda. Bunday o`simliklarni muhofaza qilish maqsadida O`zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” ta'sis etilgan. Hozirda himoyaga olingan dorivor o`simliklarning miqdori 577 ta. Shular qatorida omonqora nomli shifobaxsh o`simligining o`ziga xos dorivorlik xususiyatlari mavjud.

Qoraqobiq (Ungerniya – ungernia) — chuchmomodoshlarga mansub ko'p yillik piyozboshli va ildizpoyali dorivor o`simliklar turkumi. Piyoz tuxumsimon, usti qora po'st bilan o`ralgan. Piyozidan uzunligi 20 sm, eni 1,5 sm gacha barglar o`sib chiqadi. Barglari 4-6 ta bahorda hosil bo`ladi. Iyunning oxirida barglari qurib, avgustda bargsiz soyabon to`pgulli poya hosil qiladi. Gulqo'rg'oni 6 ta, gulbargchalari voronkasimon, sal qiyshiqroq, sarg'ish-qizil yoki sarg'ish. To'pguli soyabonsimon, changchisi 6 ta. Tugunchasi uch uyali. Mevasi — ko'sakcha. Urug'i qora, jigarrang. O'zbekistonda 3 turi (U. sivertzovii, U. victoris) o'sadi. Toshkent viloyatining Sijjak, Burchmulla, Chimyon, Zarkent qishloqlari atroflarida, Qorjantov, Chatqol tizma tog'larining toshli va shag'alli yonbag'irlarida 1700–1900 m balandliklarda o'sadi. Piyoz, bargi va urug'idan 12 xil alkaloid ajratib olingan. Omonqora o`simligining shifobaxshligi haqida 500 yil oldin ham tibbiy risolalarda ma'lumotlar keltirib o`tilgan. Abu Ali ibn Sino ham Ungerniani jiddiy kasalliklarni davolash vositasi deya ta'rif bergan.

Ungernia sewerzowii - Severtsov omonqorasini Qozog`iston, O`zbekiston, Qirg`izistonning tog`li hududlarda, mayda tosh tuproqli qiyaliklarda uchratish mumkin. S. omonqorasi ko'p yillik, piyozboshli o't o`simlik. Piyoz qora yoki qora-qo`ng`ir rangli qobiqlar bilan o`ralgan, uzunligi 5-10 sm. Gul o`qi barglari qurigandan so`ng o`sib chiqadi. Ildizoldi barglari chiziqsimon, 4-10 dona. Gullari

qizil rangli , guli soyabon to`pguliga yig`ilgan. Iyul oyida gullayda , mevasi avgustda pishadi , ko`sak meva. O`simlikning piyozi kuzda , mevasi yerga to`kilgandan keyin kovlab olinadi. Severtsov omonqorasining piyozi tarkibida alkaloidlardan: ungerin, likorin, galaktaminva boshqalar; saponinlar , shilliq moddalar, organik kislotalar , efir moylari kabi birikmalar kiradi. Barglarida 0,45% gacha likorin alkaloidi , 0,05% gacha galaktamin, shuningdek, tasetin, pankratin, narvesin, ungerin, ungminor, unsevin, talanamin, hippeastrin alkaloidlari mavjud.




1-rasm. **Ungernia sewerzowii- severtsov omonqorasi.**

Ungernia victoris- viktor omonqorasi Qozog`iston , Tojikiston, O`zbekistonning Surxondaryo va Farg`ona viloyatlarining tog` yonbag`irlarida o`sadi. Bu o`simlik ham ko`p yillik , piyozboshli o`t. Uning piyozi tuxumsimon qo`ng`ir rangli yupqa qobiqlar bilan o`ralgan, diametri 7-12 sm.Uzunligi 25 sm bo`lgan ko`plab qo`simcha ildizlari piyozchasining pastki qismidan o`sib chiqadi. Ildizoldi barglari 7-10 dona , ingichka, tekis qirrali bo`lib, ikki qator bo`lib joylashgan. Gullari sariq yoki sariq-pushti , iyul oyida gullaydi. Mevasi uch chanoqli ko`sakcha , avgustda pishadi. V.omonqorasining bargi hamda piyozi quritilib zavodlarda alkaloidlar olinadi. Quritish 4-5 kundan oshsa, barglari sarg`ayib qorayib qoladi. Tayyor hom ashyoning namlik miqdori 12% dan oshmasligi kerak, galaktamin miqdori esa 0,03%dan kam bo`lmasligi zarur. Hom ashyoning og`irligi 12-15kg li qoplarga qadoqlanadi, yaroqlik muddati 2 yil. Viktor omonqorasi tarkibida alkaloidlardan : galaktamin , likorin, va boshqalari ; kraxmal efir moyi birikmalari mavjud.



2-rasm. *Ungernia victoris*- viktor omonqorasi.



3-rasm.

Zamonaviy tibbiyotda galaktamin alkaloidining bromgidrat tuzi miasteniya (muskullarning patologik kuchsizlanishi yiki soxta falajlik), poliomyelit asoratlari hamda polinevrit , radikulit kasalliklarini davolash uchun , shuningdek, nervlarning shikastlanishida qo'llaniladi. S. omonqorasi poliomyelit kasalligidan keyingi paralich kasalligida hamda ichak va siydik qoplari qattiq og`riganda qo`llaniladi. Galaktamin bromgidrat va likorin gidroxlorid tabletka holida ishlab chiqariladi. Omonqora o`simligi Hisor tizmasining tog` yonbag`irlarida toshli shag`alli tuproqlarda ham kichik maydonni egallab o`sadi. Tibbiyotda asosan bu o`simlikning bargidan ko`p foydalaniladi. Tarkibida alkaloid va galaktamin saqlaydi , alkaloidlardan: likorin, hordenin, tasettin, pankratin uchraydi. Ushbu moddalar o`simlik barglarida bo`lib , barglari 14-25-aprelda yig`ib olinadi va quritiladi. Bunda alkaloidlardan 0,52%, galaktamin 0,15% bo`ladi. Galaktamin poliomyelit va

polinevrit kasalliklarida , bundan tashqari, sezgir mator nervlarining travmatik shikastlanishida ham foydalaniladi. Alkaloidlar esa oshqozon- ichak kasalliklarida foydali hisoblanadi. Yana bir dorivorligi yarani davolovchi vosita sifatida ham foydalaniladi.

Omonqora o`simligining ko`plab turlari turli xil hududlarda o`sadi. O`zbekistonda uning ikki mashhur turi Ungernia victoris hamda ungernia sewerzowii o`rganilgan . Yuqorida keltirib o`tilganidek , bu o`simliklar bir qancha jiddiy kasalliklarni davolashda tibbiyotda keng foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.<https://planta-medica.uz/ungernia-sewertzowii-regel-v-fedtsch-ungerniya-severczova/>
- 2.<https://planta-medica.uz/ungernia-victoris-vved-ex-artjush-ungerniya-viktora/>
3. Abdullayev, K. A. Ungerniyaning 3 turini farmakognostik tadqiq qilish. Ungernia victoris Vved , U. severtzovii (Rgl) B.Fedtsh., U.tadshikorum Vved: Dissertatsiya avtoreferati.
4. Dorivor o`simliklarning yashash joyi va resurslari , 1983 .
5. I.E.Akopov . eng muhim mahalliy dorivor o`simliklar va ulardan foydalanish . –Toshkent: Dengiz tabobati, 1990.
6. Matmuratova G.B “Dorivor gulhayrining shifobahsh hususiyatlari” 2023 noyabr
7. Matmuratova G.B, Nasrullayeva G “The most important role of vitamin in the human body” 2023y